

**“TASDIQLAYMAN”**

**Madaniyat va san’atni rivojlantirish  
jamg‘armasi ijrochi direktori**  
G. Umerova



**MOLIYAVIY HISOBTLAR UCHUN MILLIY  
BUXGALTERIYA HISOBLARI VA XALQARO MOLIYA  
STANDARTLARIGA MUVOFIQ TUZILGAN MOLIYAVIY  
HISOBTLAR AUDITI XIZMATLARINI BAJARISH**

**Toshkent – 2022-yil**



## E'TIBOR BERISHINGIZNI SO'RAYMIZ!

Eng yaxshi takliflarni tanlashda ishtirok etish - bu tashkilotning (kompaniyaning) ixtiyoriy qarori.

Ishtirok etishni istagan tashkilotlar yoki kompaniyalar barcha hujjatlarni diqqat bilan o'rghanib chiqishi kerak.

Xarid hujjatlarida ko'rsatilgan kerakli ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etmaslik ishtirokchining diskvalifikatsiyasiga olib keladi.

Eng yaxshi takliflarni tanlashda ishtirok etish to'g'risida qaror qabul qilgan tashkilotlarga (kompaniyalarga) g'alaba kafolatlanmaydi.

Eng yaxshi takliflarni tanlashda qatnashish huquqini boshqa yuridik shaxslarga berish taqiqlanadi.

Quyidagilarda holatlarda eng yaxshi takliflarni tanlash xarid komissiya tomonidan bekor qilinishi mumkin:

- hujjatlarni qabul qilish muddati tugagunga qadar, birorta ham taklif kelib tushmagan bo'lsa;
- faqat bitta ishtirokchi qatnashgan bo'lsa.

Agar qabul qilingan takliflarning hech biri hujjatlashtirish shartlariga javob bermasa, Eng yaxshi takliflarni tanlash bekor qilinmaydi, lekin natijasi salbiy deb hisoblanadi. Bunda komissiya qarori bilan tanlashni qayta o'tkazish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunining 32-moddasiga binoan, g'olibni baholanishida nafaqat taklif etilgan xizmat va tovarning qiymati, balki hajmi va sifati hisobga olinadi.

## **Ushbu hujjatda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:**

Eng yaxshi takliflarni tanlash (keyingi matnlarda – tanlash) – sotib olish tartib-taomilining bir nechta ishtirokchilaridan tushgan takliflarni taqoslashga asoslangan davlat xaridlarini o'tkazishning raqobatbardosh usuli.

Davlat buyurtmachisi – davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs (keyingi o'rnlarda – "buyurtmachi");

Xarid komissiyasi – tanlash komissiyasi hisoblanib, davlat xaridlari tamoyillarini amalga oshirish va xarid qilish tartib-taomillari jarayonida qarorlarning mustaqilligini ta'minlash maqsadida tuzilgan bo'lib tanlashni amalga oshiruvchi doimiy organ (keyingi o'rnlarda – komissiya);

Xarid qilish hujjatlari – taklifni tayyorlash uchun ishtirokchilarga berilgan ko'rsatmalar, shartlar va talablarni o'z ichiga olgan bir necha qismdan iborat hujjat;

Tanlash ishtirokchisi – taklif qilingan shartlar bo'yicha tanlashda ishtirok etish istagini bildirgan xo'jalik yurituvchi subyekt (keyingi o'rnlarda – ishtirokchi);

G'olib – tanlash natijalariga ko'ra taklifi eng maqbul deb tan olingen tanlash ishtirokchisi;

Ishtirokini ta'minlash – "ishtirokchining buyurtmachiga takliflar taqdim etilishi munosabati bilan yuzaga keladigan majburiyatlarning bajarilishini kafolatlashi" to'g'risidagi qonun moddasiga muvofiq amalga oshiriladi;

Baholash mezonlari – ishtirokchilarning takliflarini baholash uchun ishlatalidigan ko'rsatkichlar;

Maxsus axborot portalı (keyingi o'rnlarda – portal) – bu veb-sayt va davlat xaridlarini o'tkazish, davlat xaridlari to'g'risidagi e'londlarni, davlat xaridlari natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni, tanlash ishtirokchilarining takliflarini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlarni joylashtirish hamda elektron ko'rinishda bo'lishni, shuningdek, elektron davlat xaridlarini o'tkazishni ta'minlaydigan maxsus elektron platforma.

## 1. TANLASH ISHTIROKCHISI UCHUN QO'LLANMA

### 1. Umumiy qoidalar

**1.1.** Mazkur hujjatlar O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2020-yil 13-apreldagi "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

**1.2.** Tanlash predmetining nomi, turi va buyurtmachining manzili va kontaktlari Tanlashning axborot jadvalida (keying matnlarda – TAJ) keltirilgan.

**1.3.** Tanlashda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar har qanday yuridik shaxs ishtirok etishi mumkin, shu jumladan tanlash predmetiga muvofiq ish tajribasiga ega bo'lgan kichik biznes subyektlari.

**1.4.** Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchi quyidagilarni bajarishi kerak:

a) tanlash shartlari bilan tanishish uchun maxsus axborot portalida joylashtirilgan tanlash hujjatlarining elektron versiyasini yuklab olish, shuningdek buyurtmachini ushbu tanlashda ishtirok etish uchun rasmiy xat bilan ariza orqali xabardor qilish. Bunda xat (ariza) da ishtirokchining ismi, tanlash mavzusi, shuningdek manzili va bank rekvizitlari bo'lishi kerak. Xat maxsus portalda yuklanadi;

b) ushbu hujjat talablariga muvofiq kerakli hujjatlarining shaklini va taklifini ilova qilishi.

**1.5.** Tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan har qanday hujjatlar va ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi hamda mazkur tanlash bilan rasman aloqasi bo'lmagan shaxslarga ma'lum qilinmaydi.

**1.6.** Har bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko'rib chiqiladi.

### 2. Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon

**2.1.** Tanlash orqali amalga oshiriladigan davlat xaridi to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan cheklanmagan miqdordagi shaxslarga maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga, shuningdek davlat buyurtmachisining xohishiga ko'ra — uning rasmiy veb-saytiga tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'lonni va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini joylashtirish yo'li bilan ma'lum qilinadi.

**2.2.** Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari davlat buyurtmachisi tomonidan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida besh ish kuni oldin maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

**2.3.** Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon quyidagi axborotlarni o'z ichiga olishi kerak:

tanlashni o'tkazish shakli;

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang'ich narxi;

tanlash o'tkaziladigan joyning manzili;

ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar;

davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan bog'lanish uchun aloqa bog'lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdar shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, va manzili;

**2.4.** Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdar vazirliklar, idoralar va davlat ,buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etish mumkun.

taklifni rasmiylashtirishga doir talablar.

**2.5.** Tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'lon va (yoki) tanlashda ishtirok etish uchun taklif qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa axborotlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

### **3. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari**

**3.1.** Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari maxsus axborot portalini orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'ltonni joylashtirish bilan bir vaqtida davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

**3.2** Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan axborot;

ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta, to'lov tartibi haqidagi axborot;

tanlashda ishtirop etish uchun taklifni davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to'g'risidagi talab;

ishtiropchilarga tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan sana;

texnik topshiriq;

ushbu qonunga muvofiq takliflarni baholash mezonlari va ko'rib chiqish tartibi.

**3.3.** Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlariga ularning ajralmas qismi bo'lgan shartnomasi loyihasi ilova qilinadi.

**3.4.** Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini tasdiqlaydi.

**3.5.** Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tanlashda ishtirop etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan bir ish kunidan kechiktirmay tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu tanlashda takliflarni taqdim etishning tugash muddati kamida uch ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan birga, e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

### **4. Tanlash ishtiropchilarining takliflarini berish tartibi**

**4.1.** Tanlash ishtiropchilarining takliflari e'londa va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan tartibda **etender.uzex.uz – elektron platforma** orqali taqdim etiladi.

**4.2.** Tanlash ishtiropchisi taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'riliği uchun javobgar bo'ladi.

**4.3.** Tanlash ishtiropchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

**4.4.** Tanlash uchun taklif hujjatlari quyidagilardan iborat:

texnik topshiriqqa muvofiq talablarni o'z ichiga olgan taklifning texnik qismi, taklifning narx qismi, shu jumladan baholash mezonlariga muvofiq talablar.

1-shakl – tanlashda ishtirop etish uchun ariza.

2-shakl – tanlash ishtiropchisi haqida umumiy ma'lumot.

3-shakl – kafolat xati.

Tanlash ishtiropchisiga nisbatan bankrotlik protseduralari yo'qligini, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorlik yo'qligini tasdiqlovchi hujjatlar.

**4.5.** Tanlash ishtiropchisiga qo'yiladigan talablar:

- ishtiropchining Auditorlar reestridda mavjudligi (auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan litsenziyaning mavjudligi);

- auditorlik xizmatlarini ko'rsatishda kamida 5 yillik tajribaga ega bo'lishi;

- 2021-yil yakunlari bo'yicha auditorlik tashkilotlari reytingida yuqori reyting ko'rsatkichiga ega bo'lish (10-o'rindan past bo'lмаган);

- auditorlik faoliyatini amalga oshirishda kamida 4 milliard so'mlik kasbiy javobgarlikni sug'ortalash polisiga ega bo'lishi;

- shtatda auditorlarning zarur malaka sertifikatiga ega bo'lgan kamida 5 nafar mutaxassis bo'lishi (mutaxassislar tegishli soha bo'yicha kamida 5 yillik ish stajiga ega bo'lishi kerak);

- o'tgan kalendar yili uchun har qanday darajadagi byudjetlarga yoki davlat byudjetidan tashqari jamg'armalariga hisoblangan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlardan bo'yicha qarzlari bo'imasligi kerak;

- faoliyati O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagagi O'RQ-677-soni "Auditorlik faoliyati to'g'risida" Qonunida belgilangan mezonlarga muvofiqligi.

Shu bilan birga tanlash ishtirokchisi buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni lozim darajada bajargan va buyurtmachi bilan sud muhokamasi holatida bo'lmasligi lozim.

**4.6.** Hujjatlarning to'liq emasligi va hujjatlarni noto'g'ri tayyorlash, holatlari xarid komissiyasi yig'ilish bayonnomasida qayd etiladi. Shu bilan birga, tanlash komissiyasi va buyurtmachi hujjatlarning to'liqligi uchun ishtirokchi oldida javobgar emas. Shu munosabat bilan, ishtirokchi bu masala bo'yicha qo'shimcha da'vo arizasini berishga haqli emas.

## **5. Tanlashni o'tkazish**

**5.1.** Agar tanlashda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugagan paytda faqat bitta taklif taqdim etilgan yoki birorta ham taklif taqdim etilmagan bo'lsa, tanlash o'tkazilmagan deb hisoblanadi.

**5.2.** E'londa tanlash o'tkaziladigan vaqt sifatida ko'rsatilgan vaqtda tanlash komissiyasi tanlash ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

**5.3.** Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga mos kelmaydigan takliflar xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi. Tanlashni o'tkazishda ishtirokchilarning boshlang'ich narxdan yuqori bo'lgan narx bo'yicha takliflari xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi.

**5.4.** Agar xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilardan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan kamida ikkita taklif olingan bo'lsa, tanlash o'tkazilgan deb hisoblanadi.

**5.5.** Ishtirokchilarning barcha takliflari tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholanadi va tanlash o'tkazish bayonnomasida qayd etiladi.

**5.6.** Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran uch ish kunidan oshishi mumkin emas.

## **6. Tanlash g'olibini aniqlash**

**6.1.** Takliflarni taqqoslash natijalariga ko'ra xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlaydi va tanlash o'tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi.

**6.2.** Xarid komissiyasining qarori bilan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi sifatida e'tirof etilgan zaxiradagi g'olib aniqlanishi mumkin.

**6.3.** Bayonnomalarda davlat buyurtmachisi tomonidan u rasmiylashtirilgan kunda davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirilishi kerak.

**6.4.** Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalarini bo'yicha e'tirozlar kelib tushmagan bo'lsa, davlat buyurtmachisi va xarid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnomaga tuziladi.

**6.5.** Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

**6.7.** Tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalarini bo'yicha e'tirozlar kelib tushganda, xarid komissiyasi e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

**6.8.** Davlat buyurtmachisi tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalarini to'g'risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisiga bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

**6.9.** Tanlash natijalarini bo'yicha tuzilgan shartnomaga to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

## **7. Tanlash natijalarini rasmiylashtirish**

**7.1.** Tanlash natijalariga doir shartnoma bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi.

**7.2.** Ushbu yo'riqnomada maxsus shakl va qo'shimchalar o'rnatilgan hujjatlar ushbu shakl va qo'shimchalarga muvofiq topshirilishi, ishtirokchi tomonidan belgilangan tartibda imzolanishi va rasmiylashtirilishi zarur.

**7.3.** Davlat buyurtmachisi tomonidan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida g'olib shartnomaning shartlari bajarilishi ta'minotini taqdim etganidan keyin shartnoma tuzilishini nazarda tutuvchi shart qo'yilishi mumkin.

**7.4.** G'olib bo'lган ishtirokchi xabarnomani olgandan keyin shartnomanı ikki nusxada imzolashi va uch ish kunida mijozga qaytarishi shart.

**7.5.** G'olibning shartnomanı kechiktrishi shartnoma tuzishdan bosh tortish sifatida baholanishi mumkin.

**7.6.** G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda, xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanadi, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lган hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

**7.7.** Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishni rad etgan bo'lsa, davlat buyurtmachisi ushbu qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi yoxud elektron do'kon (22.04.2021 yildagi O'RQ-684-son 49-moddadagi elektron do'kon davlat xaridlarini amalga oshirish belgilangan mezonlar doirasida) yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

## TANLASHNING AXBOROT JADVALI

Bu bo‘lim tanlash mavzusiga tegishli maxsus qoidalarni va qo‘srimcha ma’lumotni yoki xarid hujjatlari boshqa bo‘limlarining talablarini o‘z ichiga oladi.

Nº	Bo‘limning nomi	Bo‘limlarga tushuntirishlar
1	Buyurtmachi	<p>Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi Toshkent shahar, Mirobod tumani, T. Shevchenko ko‘chasi, 1-uy Tel: 71 207 40 80</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi hisob raqami: 23402000300100001010 Markaziy bank Toshkent shahar hisob-kassa markazi.</p> <p>MFO: 00014 INN: 201122919 Sh/r: 401010860262737089300080001</p> <p>Markaziy bank Toshkent shahar hisob-kassa markazi. MFO: 00014 INN: 305122818 OKED: 84120</p>
2	Xarid predmeti	Moliyaviy hisobotlar uchun audit xizmatlari milliy buxgalteriya hisoblari va xalqaro moliya standartlariga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar auditi xizmanlarini bajarish
3	Tanlashni o‘tkazish turi	Ochiq
4	Asos	Jamg‘armaning taqvim rejasi
5	Mas’ul ijrochi	Xakimov Ulug‘bek Baxodirovich Telefon raqami: (71) 207-40-80, (90)008-01-33
6	Tanlash e’lon qilish portali	maxsus axborot portali: <a href="https://etender.uzex.uz/">https://etender.uzex.uz/</a>
7	Tanlashda ishtirok etish	Tanlashda taklif qilingan shartlar bo‘yicha ishtirok etish niyatini bildirgan har bir xohlovchi qatnashishi mumkin
8	Takliflarni taqdim etish muddatlari	Tanlash haqida e’lon maxsus axborot portalida joylashtirilgan kundan boshlab 5 ish kuni davomida takliflar topshirilishi lozim.
10	Xarid qilish hujjatlarining tili	O‘zbek tili
11	Takliflarning amal qilish muddati	Takliflarni qabul qilish muddati tugagan kundan boshlab kamida 30 kun muddatda
12	Takliflarni ko‘rib chiqish va baholash	Takliflarni qabul qilish muddati tugagan kundan boshlab 10 ish kundan oshmagan muddatda
13	Buyurtmachi tomonidan belgilangan xizmatlarning cheklangan bahosi	<b>60 000 000.00 so‘m</b> (oltmush million so‘m) 00 tiyin,
14	Xizmatlar ko‘rsatish muddati	2022 yil 31 dekabrga qadar
15	To‘lov shartlari	To‘lov milliy valyutada (so‘m) amalga oshiriladi. Oldindan to‘lov umumiyligi summaning o‘ttiz foizi (30%) miqdorida amalga oshiriladi (shart summasi <b>1 mlrd</b> dan oshmagan xollarda). Qolgan to‘lovlari amalda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun tomonlarning dalolatnomasi va hisob-faktura imzolangan kundan boshlab 15 bank kunida to‘lanadi
16	Shartnoma tili	Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan taklif va tegishli yozishmalar va hujjatlar o‘zbek va rus tillarida taqdim etiladi. ( <i>Taklif boshqa tilda bo‘lishi mumkin agar unga o‘zbek yoki rus tilidagi aniq tarjimasi ilova qilingan bo‘lsa</i> )

## **II. Xarid qilish hujjatlarining shakllari va qo'shimchalari. Tanlashda ishtirok etish uchun taqdim etiladigan hujjatlar**

1. Tanlash ishtirokchisining muhri bilan tasdiqlangan davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi "Guvohnoma" nusxasi.
2. Tanlash ishtirokchisining muhri bilan tasdiqlangan Ustav va ta'sis hujjatining nusxasi
3. Narx taklifi (1-shakl)
4. Tanlashda ishtirok etish uchun ariza (2-shakl)
5. Kafolat xati (3-shakl).
6. Tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot (4-shakl)
7. Mavjud soliq qarzları (Soliq inspeksiyasidan ma'lumotnoma) va boshqa majburiy to'lovlariga to'g'risida ma'lumot.
8. Sharhnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, mehnat va boshqa resurslarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot.

### **III. Texnik qism**

#### **1-bo‘lim. Umumiy ma’lumot**

1.1 Xizmatlarning to‘liq nomi

1. Foydalanish maqsadlari

2. Sotib olish uchun asos

3. Buyurtmachi haqida ma’lumot

4. Auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish ro‘yxati va muddatlari

5. Auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish joyi

#### **2-bo‘lim. A’zolik talablari**

2.1. Auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish shartlari

2.2. A’zolik talabi

#### **3-bo‘lim. Auditorlik xizmatlari natijalarini topshirish va qabul qilish tartibi**

3.3. Kutilgan natija

3.4. Xizmatlar natijalarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ularni Buyurtmachiga topshirishga qo‘yiladigan talablar

#### **4-Bo‘lim. Sifat tekshiruvi**

4.1. Auditorlik xizmatlari sifatini taminlash hajmiga qo‘yiladigan talablar

4.2. Auditorlik xizmatlari natijalari sifatini ta’minlash muddati

## **Texnik topshiriqga ilova**

### **1-bo‘lim. Umumiy ma’lumot**

#### **1.1. Xizmatlarning to‘liq nomi**

" \_\_\_\_\_ " Moliyaviy hisobotlar uchun audit xizmatlari milliy buxgalteriya hisoblari va xalqaro moliya standartlariga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar auditi xizmatlarini bajarish.

#### **1.2. Foydalanish maqsadlari**

2022-yil yakuni bo‘yicha " \_\_\_\_\_ " Moliyaviy hisobotlar uchun audit xizmatlari milliy buxgalteriya hisoblari va xalqaro moliya standartlariga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar auditi xizmanlarini bajarish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiqligi yuzasidan auditorlik tashkilotlarini jalg qilgan holda auditini o‘tkazish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish.

#### **1.3. Xaridlar tizimini tekshirish uchun asoslar**

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagagi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni hamda 2014-yil 06-maydagagi “Davlat organlari va tashkilotlarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari.

#### **1.4. Buyurtmachi haqida ma’lumot**

Nomi: " \_\_\_\_\_ "

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, \_\_\_\_\_

Yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, \_\_\_\_\_

Telefon: \_\_\_\_\_ E-mail: \_\_\_\_\_ Veb-sayt: \_\_\_\_\_

#### **1.5. Auditorlik xizmatlari ro‘yxati, ularni ko‘rsatish muddatlari va davriyiligi**

Pudratchidan (potentsial xizmat ko‘rsatuvchi provayderdan) talab qilinadigan ishlar, xizmatlar ro‘yxati va ularning hajmlari (miqdori), real ehtiyojlarni hisobga olgan holda va ularni amaldagi normativ hujjatlar talablari asosida asoslash:

-Faoliyatning huquqiy jihatlarining O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiqligini baholash;

- birlamchi hujjatlar va moliyaviy hisobotlarni tasdiqlangan smetalarga muvofiqligi nuqtai nazaridan tahlil qilish

-xo‘jalik operatsiyalarining O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi zarur dalillarni olish uchun yetarli hajmda auditorlik tartib-qoidalarini amalga oshirish;

-bajarilgan ishlar dalolatnomalarini va bajarilgan ishlar uchun hisob-kitoblarni tekshirish

-Olingan materiallar bo‘yicha birlamchi hujjatlarni o‘rganish va tekshirish

-ichki nazorat darajasini tahlil qilish

- Xarajatlar auditi

-moddiy boyliklar auditi

-mehnat qonunchiligiga rioya etilishini tekshirish

- ish yuritishning to‘g‘riligini baholash

-ko‘rsatilayotgan auditorlik xizmatlari natijalari bo‘yicha xulosa va tavsiyalarni shakllantirish

Ko'rib chiqish davri: 10 ish kuni.

Xizmatlarni ko'rsatish muddati 2022-yil 31-dekabrgacha (shartnomalar tuzilgan sanaga qarab farq qilishi mumkin)

### **1.6. Auditorlik xizmatlarini ko'rsatish joyi**

Audit xizmatlarini ko'rsatish Buyurtmachining binosida amalga oshiriladi

## **2-bo'lim. A'zolik talablari**

### **2.1. Auditorlik xizmatlarini ko'rsatish shartlari**

Pudratchidan asosli va mustaqil pozitsiya kutiladi. Tekshiruv va hisobot (xulosa) tuzish vaqtida Pudratchi Buyurtmachidan, shuningdek har qanday uchinchi shaxsdan mustaqildir.

### **2.2. A'zolik talablari**

Ijrochilar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Pudratchining Auditorlar reestridda mavjudligi (auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan litsenziyaning mavjudligi);
- auditorlik xizmatlarini ko'rsatishda kamida 5 yillik tajribaga ega bo'lishi;
- 2020 yil yakuni bo'yicha auditorlik tashkilotlari reytingida yuqori reyting ko'rsatkichiga ega bo'lish;
- to'lovga qodir bo'lмаган, bankrot bo'lмаган, tugatish jarayonida bo'lmasligi, eng yaxshi taklifni tanlashda ishtirokchining shartnomani bajarish uchun muhim bo'lgan qismidagi mol-mulki xatlanmasligi, uning xo'jalik faoliyati to'xtatilmasligi kerak.

Ishtirokchilar tanlovga qo'yilmaydi:

- yuqoridagi talablarga javob bermasa;
- O'zbekiston Respublikasining **2021-yil 25-fevraldaggi O'RQ-677-son** "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunida belgilangan mezonlarga javob bermasa;
- Buyurtmachi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganlik;
- Buyurtmachi bilan sud muhokamasi holatida bo'lish;
- qayta tashkil etish, tugatish va bankrotlik bosqichida bo'lgan;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzlarining mavjudligi;
- tanlovda ishtirok etish uchun zarur hujjatlarni belgilangan muddatda taqdim etmaganlar;
- vijdonsiz pudratchilarning yagona reestridda takliflarni ko'rib chiqish sanasida joylashgan.

## **3-bo'lim. Auditorlik xizmatlari natijalarini topshirish va qabul qilish tartibi**

### **3.1. Kutilgan natija**

Ko'rsatilgan xizmat doirasida bajarilgan ishlardan to'g'risida hisobot shakllantiriladi va Buyurtmachiga taqdim etiladi, jumladan:

bajarilgan ishlarning tahliliy qismi, texnik topshiriq bo'yicha O'zbekiston Respublikasining davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari buzilganligi, shartnomalar shartlarining buzilishi aniqlanganligi;

Buyurtmachining tashkiliy xarid tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar; natijalarni topshirish va qabul qilish tartibi Pudratchi va Buyurtmachi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

### **3.2. Xizmatlar natijalarini ro'yxatdan o'tkazish va ularni Buyurtmachiga topshirishga qo'yiladigan talablar**

Audit xizmatlarining natijalari Buyurtmachiga yozma hisobotlar shaklida, shu jumladan import uchun alohida va mahalliy shartnomalar (shartnomalar) bo'yicha alohida matnli tahliliy qism, rejalar, grafiklar, jadvallar va boshqa matn va grafik materiallarni o'z ichiga olgan holda taqdim etiladi. Barcha materiallar rus va o'zbek tillarida uch asl nusxada qog'oz ko'rinishida, shuningdek elektron shaklda (pdf, doc, xls va boshqalar) ikki nusxada elektron tashuvchida taqdim etilishi kerak. Auditorlik xulosasi auditorlik tekshiruvini o'tkazgan auditor(lar) va auditorlik tashkiloti rahbari tomonidan sahifama-bet imzolanishi kerak.

#### **4-bo'lim Sifatni ta'minlash**

##### **4.1. Auditorlik xizmatlari sifatini ta'minlash ko'lamiga qo'yiladigan talablar**

Pudratchi kafolat beradi:

- ushbu texnik topshiriqda nazarda tutilgan talablarga muvofiqligi;
- auditorlik xizmatlarini o'z vaqtida va sifatli ko'rsatish;
- tegishli tajribaga ega malakali mutaxassislarni jaib etish;
- xaridlar tizimi va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish auditini o'tkazish;
- audit natijalari bo'yicha tuzilgan hisobotning milliy va xalqaro audit standartlari talablariga javob berishi;
- auditorlik xizmatlarini ko'rsatish tugagandan so'ng, Buyurtmachiga xizmatlar ko'rsatish obyekti tegishli hujjatlarning to'liq paketini, shu jumladan auditorlik xizmatlarini ko'rsatish jarayonida foydalanilgan barcha materiallarni topshirish;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan chegaralarda kafolat majburiyatlari yuzaga kelgan taqdirda xarajatlarning umumiy miqdorini qoplash;
- Buyurtmachi tomonidan oshkor qilingan ma'lumotlarning maxfiyligi, shuningdek, auditorlik xizmatlarini ko'rsatish jarayonida tuzilgan va / yoki foydalanilgan barcha materiallar va tahliliy ma'lumotlar, rejalar, jadvallar, jadvallar va boshqa matn va grafik materiallarning maxfiyligi.
- Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan barcha hujjatlar, shu jumladan materiallar va tahliliy ma'lumotlar, rejalar, grafiklar, jadvallar va tuzilgan va / yoki foydalanilgan boshqa matn va grafik materiallar Buyurtmachining intellektual mulki ekanligi va yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emasligi. mijozning

##### **4.2. Auditorlik xizmatlari natijalari sifatini ta'minlash muddati**

Ushbu Texnik topshiriqning 4.1-bandida ko'rsatilgan kafolatlar muddati auditorlik xizmatlarini ko'rsatish tugagan kundan boshlab kamida 1 (bir) yil davomida amal qilishi kerak.

## **NARX TAKLIFI**

*(mijoz nomi)*

*(xarid qilish obyektining nomi)*

1. Biz, quyida imzo chekuvchilar xizmatlar ko'rsatish bo'yicha xaridlar ashyosi bilan tanishib, tanlash hujjatlarini o'rganib chiqib, tanlash ishtirokchisining ko'rsatmalari, texnik va narx qismi bo'yicha yuqorida qayd etilgan hujjatlarga muvofiq qayd qilingan xizmatlarning barchasini \_\_\_\_\_ (*raqam va yozuv bilan*) so'mga bajarishni va yakunlashni o'z zimmamizga olamiz.

2. Taklifimiz qabul qilingan holatda, shartnoma tuzilgan kundan boshlab, xizmatlar ko'rsatishni boshlashni o'z zimmamizga olamiz.

3. Taklifimiz takliflar ochilgan kundan boshlab \_\_\_\_\_ (*raqam va yozuv bilan*) taqvim kuni davomida amal qiladi.

4. Shartnoma tuzilgunga qadar mazkur tanlash taklifi qabul qilinganligi to'g'risida yozma xabarnoma bilan birga tomonlar o'rtaida yuridik majburiyat hisoblanadi.

5. Qabul qilgan taklifni qabul qilish to'g'risida bildirishnomalar tomonlar o'rtaida rasmiy shartnoma tuzish majburiyatini taqdim etishini tasdiqlaydi va uning bajarilishini ta'minlanadi.

6. Xaridor va xarid komissiyasi ular tomonidan taqdim etilgan takliflardan eng kichik narx taklifini qabul qilishga majbur emasligiga qo'shiladi.

7. Biz xarid komissiyasi yig'ilishlari bayonnomasi bilan tasdiqlangan va keyingi o'zgarishlarga duch kelmaydigan shartnoma narxlari bo'yicha mijoz bilan o'zaro hisob-kitob qilish majburiyatini olamiz.

Sana: 2022-yil "\_\_\_"

Rahbar yoki vakolatli shaxsning F.I.SH. va imzosi \_\_\_\_\_

*Muhr o'rni*

TEXNIK QISM  
ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKIDA

**2- SHAKL**

                        -son  
Sana: \_\_\_\_\_

**Xarid qilish komissiyasiga**

**BUYURTMA**

*tanlash ishtirokchisining nomi*

tanlashda ishtirok etish uchun taqdim etiladigan hujjatlar haqiqiyliginin va to‘g‘riligini tasdiqlaymiz                      va                      tanlash                      hujjatlariga                      muvofiq                      uchun                      tanlashda  
ishtirok etish istagini bildiramiz.

Shu munosabat bilan quyidagi hujjatlarni **etender.uzex.uz elektron platforma** orqali taqdim etamiz:

1. Kerakli hujjatlari \_\_\_\_ varaqda (kompakt disk va boshqalar taqdim etilsa, nomi va soni yoki varaqlarning soni ko‘rsatiladi);
2. Tanlash taklifining texnik qismi;
3. Tanlash taklifining narx qismi.
4. Boshqa hujjatlar (agar boshqa hujjatlar taqdim etilsa, varaqlarning nomi va soni ko‘rsatiladi).

Tanlash taklifini tayyorlash uchun mas’ul shaxsning:

Aloqa telefoni/faks: \_\_\_\_\_

Electron pochta manzili: \_\_\_\_\_

Rahbar yoki vakolatli shaxsning F.I.SH. va imzosi \_\_\_\_\_

*Muhr o‘rni*

### **3- SHAKL**

\_\_\_\_\_ -son  
\_\_\_\_\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_

#### **KAFOLAT XATI**

Ushbu bilan biz \_\_\_\_\_  
*(kompaniya nomi)*

to‘g‘risida quyidagilarni tasdiqlaymiz:

- \_\_\_\_\_ qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik jarayonida emas;  
*(kompaniya nomi)*

- (mijozning nomi) bilan sud yoki arbitraj holatida emas;
- ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha noto‘g‘ri bajarilgan majburiyatlar yo‘q;
- vijdonsiz ijrochilarning yagona reyestrida mavjud emas;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzi yo‘q;
- korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaydi.

Imzo chekuvchilar:

Rahbarning F.I.Sh. \_\_\_\_\_

Bosh hisobchi (Moliya bo‘limi boshlig‘i)ning F.I.Sh. \_\_\_\_\_

Yuriskonsultning F.I.Sh. \_\_\_\_\_

*Muhr o‘rni*

**4- SHAKL****Tanlash ishtirokchisi to‘g‘risida umumiy ma’lumot**

1	Yuridik shaxsning to‘liq nomi va uning tashkiliy-huquqiy shakli	
2	Ro‘yxatdan o‘tish to‘g‘risidagi ma’lumotlar (ro‘yxatga olingan sana, ro‘yxatga olish raqami, ro‘yxatga oluvchi organning nomi)	
3	Yuridik manzil	
4	Aloqa telefoni, faks, elektron manzili	
5	To‘liq bank tafsilotlari	
6	Asosiy faoliyat yo‘nalishlari	
7	Pudratchining Auditorlar reestridda mavjudligi (auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan litsenziyaning mavjudligi	

---

*(vakolatli shaxsning imzosi F.I.Sh.)***M.O‘.**

Sanasi: 2022 y. “ \_\_\_\_ ”

## Ishtirokchiga qo‘yiladigan mezonlar

### Takliflarni texnik baholash.

Takliflarni texnik baholash xarid qilish komissiyasi tomonidan texnik qismning quyidagi hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Tanlash ishtirokchilarining texnik baholashga ko‘ra o‘tmagan takliflar tanlashdan chiqariladi.

<p>1. Tavsiyanomalar ilova qilingan holda moliyaviy hisobotlar uchun audit xizmatlari va xalqaro moliya standartlariga muvofiq ishlarni bajarish (xizmatlar ko‘rsatish) bo‘yicha tajribaning mavjudligi (tasdiqlovchi ma’lumot ilova qilinadi).</p>	5yil – 2 ball 10 yil – 5 ball 20 yil – 10 ball
<p>2. Milliy sertifikatlashtirish tizimiga muvofiq reyting ko‘rsatkichi.</p>	UZ1.A – 2 ball UZ1.A+ – 5 ball UZ1.A++ – 10 ball
<p>3. Moliyaviy hisobotlar uchun audit xizmatlari milliy buxgalteriya hisoblari va xalqaro moliya standartlariga muvofiq mutaxassisning kamida 5 yillik tajribasi mavjudligi, tavsiyanomalar (sertifikatlar va boshqa tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi).</p>	5yil – 2 ball 10 yil – 5 ball 20 yil – 10 ball
<p>4. Auditorda xizmatlar ko‘rsatish uchun sertifikatlar va litsenziyalar, ACCA va DIPIFR sertifikatlari xizmatlarining mavjudligi.</p>	ACCA – 5 ball ACCA va DIPIFR – 10 ball
<p>5. Mustaqil audit, buxgalteriya hisobi va konsalting tashkilotlarining yetakchi global assotsiatsiyasi – Integra International Professional Auditorlar Xalqaro Assotsiatsiyasining O‘zbekiston Respublikasidagi a’zosi va vakolatli vakili xizmatlarining mavjudligi.</p>	Mavjudligi – 10 ball
<p>6. Kamida 5 yil xalqaro audit tarmog‘ining to‘liq a’zosi bo‘lish</p>	5yil – 2 ball 10 yil – 5 ball 20 yil – 10 ball
<p>7. 2021 yil yakuni bo‘yicha auditorlik tashkilotlari reytingida yuqori reyting ko‘rsatkichiga ega bo‘lishi</p>	10-o‘rin – 2 ball 5-o‘rin – 5 ball 1-o‘rin – 10 ball
<p>8. Narx taklifi</p>	20 – ball gacha

